

Talaba- Kelinlar Faoliyatining Ijtimoiy Pedagogik Va Psixologik Shart-Sharoitlari

Kuchkorova Ozoda G'ayrat qizi¹

Anatatsiya: Ushbu maqolada talaba kelinlarning hayotidan olingan dolzarb muommolar va ularning yechimlari keltirilib o'tilgan. Talaba kelinlarning oiladagi burch va majburiyatlari va ularning pedagogik va psixologik xususiyatlari haqida ham so'z borgan.

Kalit so'zlar: Ayol, ayol kishining burch va majburiyatlari, oila, kelinlik fazilatlar, talaba kelinlarning o'quv faoliyatidagi ishtirok etish jarayonlari, talaba kelinlarning pedagogik va psixologik xususiyatlari, talaba kelinlarning turmush va ta'lim sohasidagi faoliyatining o'xshashliklari va farqlari.

Kirish.

Ayolning nafosati va nazokati, vafo va sadoqati, aql-zakovati va fidoiyligi asrlar mobaynida yer yuzida hayot abadiyligiga asoslanib bormoqda. Shu bois ayolni e'zozlash, ayolga ehtirom ko'rsatish xalqimizga xos oliyjanob qadriyat hisoblanadi. Ayol kishi bu o'n sakkiz ming olam ichra munavvardir. Shu olam ichra ayol kishining o'zni bebaho. Behaloligi shundaki, ayol kishi o'z oilasini hamma narsadan ustun qo'yuvchi, har qanday vaziyatda ham sabr-toqatli, ko'nikuvchan, ota-ona uchun ko'z qorachig'idek asrovchi ko'zmunchoqdir.

Islom dini ayollarning sha'nini ko'tarib, ularning turmush tarzini go'zallastirgan. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam ayollarga o'z erlariga itoat qilishni, erkaklarga esa jufti halollariga mehribonlik qilishni buyurganlar. Qizlarni majburlab erga berish, ularning mollarni yeyishni man qilganlar. Chunki johiliyat davrida ayollar meros ololmas, agar biror kishiga qiz farzand ko'rganining xabari berilsa, g'azablanganidan yuzlari qorayib, bo'zarib ketar edi. Alloh taolo Qur'oni karimda "Niso" (Ayollar) nomi bilan alohida sura nozil qilgan bo'lib, unda meros va ayollarga muomala qilish hukmlari bayon etilgan dinimizda ularning ehtirom qilinganini ko'rsatib beradi.

Asosiy qism.

Qiz bola dunyoga kelar ekan, uning taqdiriga albatta oqila farzand, musulima singil, sadoqatli turmush o'rtog, sarishta kelin va farzandlari uchun dunyo turguncha turib beruvchi mehribon ona bo'lishi bitilgan. Qiz bola ulg'ayar ekan, unga ota-ona, buva-buvilari tomonidan ta'lim, tarbiya berib boriladi. Muomala madaniyati, etika, estetika, pokizalik, halollik, oilaviy munosabatlar, kelinlik vazifalari, burch va majburiyatlari yoshligidan singdirilib boriladi. Turmush qurish arafasida turgan qizlar uchun hoh u talaba qiz, hoh u oddiy ishchi yoki turli xil mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi bo'lsin, lekin turmush qurdimi u albatta jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan oilani asrab-ayavlashi, oiladagi muhit, er-hotin munosabatlarini to'liq anglab yetishi kerak. Negaki, "Turmush -bu must". Turmushda oilaviy tushunmovchiliklar, ro'zg'or tashvishlari va albatta o'ziga yarasha kamchiliklari bo'ladi. Bu vaqtda kelin oqilona qaror qabul qilib, vaziyatga yechim topishi hamda oxiri yaxshilik bilan yakun topishi kerak albatta. Oilada faqatgina kelin emas, balki kelinning turmush o'rtog'i ham unga yordam berishi, har qanday vaziyatda uni tushuna olishi hamda ishonishi zarurdir. Qiz bola turli yoshda oila quradi. Ba'zilar maktabni tamomlab, kollej vaqti yoki uni bitirib, oliy ta'lim tizimida yoki uni tamomlab, xullas barcha hollarda. Masalan, qiz bola talabalik vaqtida turmush qurdi. Bunda o'z-o'zidan ko'rinadiki, oliy ta'lim tizimida talaba kelinning oila va ta'lim sohasidagi faoliyati boshlanadi. Bunda talaba kelin ham oila ham o'qish faoliyatini birdek olib ketishi kerak. To'yan keyingi holatlar: oilaviy munosabatlar uy-ro'zg'or ishlari, qaynata-qaynonaning xizmati, kelinning burch va majburiyatlari ko'payadi. Ota uyidagi erkaliklar, injiqliklar, o'yinqaroqliklari, yosh bolalarcha harakatlari, sho'x-shodonlik, o'yin-kulgulari qolib ketadi. Kelin bo'lib borgan uyida esa chaqqon, tartibli, qo'li shirin pazanda, xushmuomala mehribon pokiza, mehnatkash bo'lishi kerak. Kelin erta turib, xovli supurishi, yoki nunushta tayyorlashi, turmush o'rtog'ini yaxshi kayfiyatda ishga jo'natishi, farzandlarini qornini to'qlab, chiroyli kiyintirib, bog'cha yoki maktablarga jo'natishi kerak bo'ladi. Talaba kelin oila ishlari bilan bo'lib, o'quv faoliyatida darslarga o'z vaqtida kelmaslik, kechikish holatlari, uyga berilgan vazifalarni bajarmaslik, undan tashqari uyqusizlik, charchash, holsizlik, ruhiy zo'riqish, betob bo'lish holatlari, buning natijasida darsda ishtirok etish jarayonlari kamayadi, o'zlashtirish darajasi ancha susayadi. Ya'ni bunda talaba kelinda ham pedagogik ham psixologik xususiyatlar kuzatiladi.

Pedagogik xususiyatlari: ota uyidagi barcha erkinliklar va erkaliklar yoqoladi, og'ir -bosiq, sabr-toqatli, kamgap, epchil, pokiza, pazanda kelinga aylanadi. Lekin shunday holatlar kuzatiladi kelin oilaviy hayotga tayyor bo'lmasligi mumkin, ya'ni bunda turmush o'rtogiga bo'lgan munosabati, qaynata va qaynonaga bo'lgan muomala, ularni ko'ngliga yo'l topa olmasligi, uy ishlariga vaqtida ulgura olmasligi mumkin.

¹ Guliston Davlat Universiteti Pedagogika Fakulteti Pedagogika va psixologiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Psixologik xususiyatlari: o'ziga bo'lgan ishonch , turmush o'rtog'i tomonidan har qanday vaziyatda ham tushuna olishi va qo'llab -quvvatlanishi,himoyachi ,istagan vaqtda hoxish -istaklarning bajarilishi ,berilayotgan e'tibor va mehr-muhabbat,erning ayol uchun mas'uliyatli shaxs ekanligi.Mustasno holatlari, kelinning jizzakilik holatlari yoki asabiylik , tez jahl chiqishi harakterining og'irligi oxir oqibat er-hotin o'rtasidagi nizo kelib chiqishiga aylanadi.Turmush o'rtog'iga behurmatlik,gap qaytarish holatlari,er tomonidan hotiniga yomon muomala ,tazyiq, hattoki,qo'l ko'tarish darajasiga ham borish holatlari kuzatiladi.Natijada, oilada urush-janjel kelib chiqadi ,qaynota va qaynonaning aralashuvi ,gap-so'zlari bundan tashqari o'qishga vaqtida ulgura olmaslik va o'qishdagi muammolarning kelib chiqishi ham oilaviy ham ta'lim tizimidagi muammolar kelinga ta'sir qilib, kelinda ruhiy zo'riqish,stress,depressiya,asab tizimlarining charchashi, tez tushkunlikka tushish holatlari kuzatiladi,hattoki kelin o'ziga e'tibor berish tugul, ko'zguga qarashga ham vaqt topolmay qoladi. Talaba kelin agarda xomilador bo'lsa , xomilasining rivojlanishiga zarar yetishi mumkin.Bunda xomila ona qornida rivojlanmay qolib nobud bo'lishi yoki nogiron bo'lib tug'ilishi mumkin.

Xulosa:

Talaba kelinlar o'quv faoliyati davrida homiladorlikni boshidan kechirayotgan bo'lsa, unda avvalambor, ham biologik, ham psixologik, ham garmonal o'zgarishlar ro'y berayotgan bo'ladi. Bu davrda bola rivojlanishi jadal tarzda ketayotgan bo'ladi, shu boisdan homiladorlikdan boshlab uch oygacha bo'lgan davrda, ham ruhan, ham jismonan salomatligiga jiddiy e'tibor berishi kerak. Onada kechadigan turli xildagi zo'riqishlar avvalambor, onaning o'ziga, so'ngra uning tanasida rivojlanayotgan bolaning asab tizimiga salbiy tasir qiladi. Talaba kelinlar, ham oilasiga, ham eriga, ham o'qishiga e'tibor berish bilan bir qatorda,birinchi navbatda onaning sog'ligi va uning vujudida rivojlanayotgan bolaning so'g'ligiga ham etibor berilishi lozim. Bunday holatlarda qaynonasi, eri, oila a'zolari va oliy ta'lim muassasasidagilar hamkorlikda ko'maklashishi lozim.